



**TA'LIMDA SUN'iy INTELLEKTNING RO'LI VA
IMKONIYATLARI**

Saidrasulov Sherzod Norboy o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Axborot texnologiyalari dasturiy ta'minoti kafedrasi o'qituvchisi.

Abdusayidova Fotima Abdolim qizi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'limgohasidagi o'rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt ta'limgohayonini avtomatlashtirish, individual yondashuvni ta'minlash va o'quvchilarining bilim olish samaradorligini oshirish kabi jihatlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, maqolada SI yordamida ta'limgohayonini oshirish bo'yicha ilg'or tajribalar va istiqboldagi yo'nalishlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, ta'limgohayon, adaptiv ta'limgohayon, avtomatlashtirilgan baholash, raqamlari ta'limgohayon platformalari, innovatsion pedagogika.

Zamonaviy ta'limgohayon tizimi doimiy o'zgarishlar va texnologik taraqqiyot ta'sirida rivojlanmoqda. Sun'iy intellekt ta'limgohayonida shaxsiylashtirilgan o'qitish, o'quv materiallarini avtomatik yaratish va baholash kabi muhim funksiyalarni bajara oladi. Ushbu maqolada SI texnologiyalarining ta'limgohayonidagi ahamiyati, afzallikkari va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Suniy intellekt (SI) - bu informatika fanining bo'limi bo'lib, u odatda inson aqlini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir mashinalarni yaratishga qaratilgan. Sun'iy intellekt bugungi kunda deyarli barcha sohalarda qo'llanilib kelinmoqda. Har qanday biznes, davlat organi, ishlab chiqarish yoki savdo tuzilmasi, logistika, ta'limgohayon, tibbiyot muassasasi va bir kishining faoliyatini avtomatlashtirish – bularning barchasi sun'iy intellektni qo'llash sohalaridir. Xotira hajmining doimiy o'sishi va neyron



tarmoqning ichki aloqalarining mustahkamlanishi tufayli sun’iy intellektni qo‘llash samaradorligi asta-sekin ortib bormoqda.

Sun’iy intellekt quyidagi yo‘nalishlarda ta’lim jarayoniga katta hissa qo‘shmoqda:

1. Shaxsiylashtirilgan o‘qitish – SI texnologiyalari har bir o‘quvchining bilim darajasini aniqlab, unga mos o‘quv materiallarini taqdim etadi.

2. Avtomatlashtirilgan baholash – Sun’iy intellekt imtihon natijalarini tahlil qilib, tezkor va aniq baholar chiqarish imkonini beradi.

3. Virtual o‘qituvchilar va robotlar – Interaktiv ta’lim platformalari orqali SI yordamida darslar o‘tkazish imkoniyati ortib bormoqda.

4. Ta’lim jarayonining optimallashuvi – O‘quv dasturlarini doimiy tahlil qilib, samaradorligini oshirish uchun SI algoritmlari ishlatalmoqda.

5. Onlayn ta’lim va masofaviy o‘qitish – SI yordamida avtomatlashtirilgan o‘quv kurslari va intellektual tizimlar orqali masofaviy ta’lim samaradorligi oshirilmoqda.

Shuni ham aytish joizki, Su’niy intelekt allaqachon hayotimizda amaliy jihatdan mavjud. Ular o‘qituvchining ishtirokisiz ishlashga qodir va turli xil algoritmlardan foydalangan holda o‘quvchiga samarali qarshilik ko‘rsatishi va qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Shu bilan birga, biz texnologiya va ularning aql - idrokini qay darajada nazorat qilishimiz juda muhim. Raqamli sinfni o‘liy ta’lim yoki maktab internet tarmog‘i orqali o‘quvchilarning gibridda muhitda ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. O‘quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda darslarni avtomatlashtirish va talabalar bir - biri bilan, o‘qituvchilar esa ota - onalar bilan muloqot qilishlari mumkin bo‘lgan ijtimoiy platformani yaratish imkoniyatlari paydo boladi. Sun’iy intellektda inson xavfsizligi har doim e’tiborga olinadigan asosiy narsadir. Qachonki, insonlar xavfli joyda xavgli qismini o‘rganishimiz kerak bo‘lsa, olimlar sun’iy intellektni qo‘llab - quvvatlaydigan mashinalardan foydalanadilar. Sun’iy intellekt odamlar erisha olmaydigan har qanday joyga yetib borishi mumkin



Bugungi kunda, ta’lim sohasida sun’iy intellekt intensiv ravishda o‘z o‘rinini egallab kelmoqda. Sun’iy intellekt ma’lumotlarni o‘rganish, tahlil qilish, o‘zgartirish va tasavvur qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan axborot tizimlarini yaratishda katta ro‘lni o‘ynaydi. Bu tizimlar, o‘rganish jarayonida ma’lumotlarni tan olish, aniq maqsadlar uchun ma’lumotlarni qidirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, va natijalarni ko‘rsatish kabi vazifalarni bajarishda yordam beradi. Tabiiy va insoniy imkoniyatlarga qaraganda, sun’iy intellekt ta’lim sohasida bir nechta foydalarni olib keladi.

Sun’iy intellekt ta’lim oluvchining vaqtini tejashta va ta’limda muvaffaqiyatli rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Sun’iy intellektning imkoniyatlari keng qamrovli bo‘lib, u sizni qiziqtirgan savollarga javob berishi, berilgan buyruq asosida rasm chizishi yoki turli mavzularda taqdimotlar yaratishi va xattoki, turli referat va maqolalar ham yozib bera olish imkoniyatiga ega. Uning ta’lim algoritmlari, talabalarning individual xususiyatlari va o‘rganish usullari asosida moslashtiriladi, bu esa har bir talabalarning o‘ziga xos ta’lim yo‘lidagi qobiliyatlarini oshiradi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida ChatGPT, Khan Academy, Coursera kabi platformalar sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanmoqda. Ularning yordami bilan o‘qituvchilar yuklamasi kamayib, o‘quvchilarga individual yondashuv yanada samarali bo‘lmoqda.¹

Xulosa qilib aytganda, Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan zamonaviy texnologiyalardan biridir. U ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda, shuningdek, o‘qitish uslublarini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi. Kelajakda SI texnologiyalaridan yanada kengroq foydalanish ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Коровникова Н.А. Искусственный интеллект в образовательном пространстве: проблемы и перспективы // Социальные новации и социальные науки. – Москва : ИНИОН РАН, 2021. – № 2. – С. 98–113. URL: <https://sns-journal.ru/ru/archive/>

¹ Kadirov M.M. “Axborot texnologiyalari” fanidan o‘quv qo’llanma. 1-qism. - T.:«Sano-standart» nashriyoti, -2018. 192-237 b.



2. G'ulomov S.S. va boshqalar "Axborot tizimlari va texnologiyalari". Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. - T: „Sharq”, 2000 y. 336-368 b.
3. Raximov N.O. Intellektual o'qitish tizimlarida bilimlarni ifodalash modellari // TATU xabarlari. – Toshkent. №4. 2010. 64-68 b.
4. Kadirov M.M. „Axborot texnologiyalari” fanidan o'quv qo'llanma. 1-qism. - T.: „Sano-standart” nashriyoti, -2018. 192-237 b.